

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

YO‘LDOSHEVA DILFUZAXON ALISHER QIZI

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK
PEDAGOGLARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI
(PEDAGOGIKA FANLARI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Yo'ldosheva Dilfuzaxon Alisher qizi

Акмеологик yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi (pedagogika fanlari misolida) 3

Йулдошева Дилфузахон Алишер кизи

Технология развития креативной компетентности будущих педагогов на основе акмеологического подхода (на примере педагогических наук)..... 25

Yoldosheva Dilfuzakhon Alisher kizi

Technology for the development of creative competence of future educators on the basis of an acmeological approach (on the example of Pedagogical Sciences) 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

YO‘LDOSHEVA DILFUZAXON ALISHER QIZI

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK
PEDAGOGLARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI
(PEDAGOGIKA FANLARI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.Phd/Ped7056 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

O'rinova Nilufar Muhammadovna
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Rasmiy opponentlar:

Kadirova Munira Rasulovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Artikova Muhayyo Botiraliyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "____" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:150100, Farg'ona shahri, Yuksalish ko'chasi, 55-uy, Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti, faollar zali. Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (+99873) 244-44-93; e-mail: info@fdu.uz)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy, ARM binosi. Tel.: (+99873) 244-44-93) e-mail: fardu_info@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil "____" _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

B.Sh.Shermuhhammadov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, pedagogika fanlari doktori,
professor

T.Bakirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

B.Qurbonova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda bugungi globallashtirish tufayli ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar hozirgi ta'limning mazmuni va sifatida ham yangilanishlarni yuzaga keltirmoqda. Ta'lim rivojida islohotlar va qadriyatlarining muttasil o'zgarishi pedagogik jarayonlarga texnologiya va innovatsion yondashuvlarni faol joriy etishni taqozo etmoqda. Ta'lim jarayoniga tadbir etilayotgan innovatsiyalar samarasi pedagogning kreativ kompetentligi va uning rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq. Sarbon deklaratsiyasi (Sarbonne Declaration), "Ta'lim barcha uchun dasturi" (Education For All (EFA)), Ming yillik rivojlanish maqsadlari (Millenium Development Goals (MDGs)), Jahon ta'lim forumi (World Education Forum) va Lissabon Konvensiyalari kompetentli yondashuv asosida malakali kreativ mutaxassislarini tayyorlashning innovatsion yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda zamonaviy sharoitlarda bo'lajak pedagoglar kreativligini rivojlantirishning metodologik va ilmiy-pedagogik asoslarini takomillashtirish, kasbiy bilim berishda integrativ yondashuvning milliy modellarini ishlab chiqish hamda natijalarini obyektiv baholash borasida qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini kognitiv, muammoga yo'naltirilgan, loyihaga asoslangan, tadqiqotchilik, kooperativ texnologiyalar asosida rivojlantirish, ta'lim oluvchilarning kreativ faolligini oshirishga qaratilgan innovatsion o'qitish modellarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chizma-tasviriy modellar (aql xaritasi, mantiqiy grafika, freym) asosida kreativ kompetentlikni intensiv rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish muhim ustuvorlik kasb etadi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimining rivojlanish istiqbollari sharoitida bo'lajak pedagoglarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar o'zgarib bormoqda. "O'ZBEKISTON-2030" strategiyasi doirasida "Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda barcha yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash" 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik vazifalari sifatida belgilab berildi¹. Bu esa, akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish omillari, shart-sharoitlari, mezonlari va ko'rsatkichlarini yoritib berish, mazkur jarayon modeli va texnologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030 STRATEGIYASI" to'g'risidagi Farmoni.

sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-sonli "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bo'lajak pedagoglarning akmeologik yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash muammosi M.Ochilov, N.Azizxo'jayeva, F.Yuzlikayev, N.Sayidahmedov, B.Ma'murov kabi respublikamiz olimlari tomonidan tadqiq etilgan. I.Morxova, A.Aripdjanova, G.Ibragimova, M.Kadirova, M.To'raboyeva, A.Nafiyevalarning izlanishlari va yaratgan o'quv adabiyotlarida modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni kreativlikka o'rgatish usullari yoritilgan. Ta'lim jarayonida kreativ o'qitish muammolari Sh.Pozilova, A.Xalikov, Sh.Sharipovlar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan I.Miloslavskiy, A.Davtyan, R.Davletova, N.Timofeyeva, I.Bryakova kabilarning tadqiqotlarida kreativ pedagogika tamoyillari, mexanizmlari, kreativlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik masalalari va kompetensiya tushunchasiga oid qarashlari ilmiy jihatdan bayon etilgan. Ushbu muammo turli aspektlari N.Ribnikov, N.Kuzmina, V.Maksimova, B.Ananyev, A.Bodalyevlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijlik olimlardan E.Torrens, Dj.Gilford, A.Maslou, K.Rojers tadqiqotlarida kreativlik tushunchasi mazmun-mohiyati va kreativlikni rivojlantirish omillari tekshirilgan. Ular kreativ shaxsning sifatlari, kreativ shaxsni shakllantirish va kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyati, kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish muammolari xususida atroflicha fikr yuritishgan. "Akmeologiya" tushunchasi, akmeologik yondashuvning nazariy jihatlari, kasbiy akmeologiyaga erishish yo'llari mohiyati xorij olimlari A.Derkach, A.Rean kabi tadqiqotchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Biroq bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish muammosi maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa, akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining

“Talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish” ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyatini ochib berish orqali mazkur jarayon tuzilmasi va komponentlarini aniqlashtirish;

akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish omillari va shart-sharoitlarini yoritib berish;

akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning loyihaviy ta‘limga asoslangan texnologiyasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni tanlab olinib, tajriba-sinov ishlarida Farg‘ona davlat universiteti, Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Namangan davlat universiteti pedagogika va psixologiya yo‘nalishining 568 nafar talabalari respondent sifatida ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil etish, pedagogik kuzatuv, anketa, suhbat, ekspert baholash, faoliyat natijalarini o‘rganish, so‘rovnoma, S.Mednikning “Kreativlik” testi, P.Torrensning “Kreativlikni aniqlash testi”, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish tuzilmasi motivatsion, kognitiv, reflektiv, aksiologik, faoliyatli, kommunikativ, innovatsion komponentlari pedagogik-psixologik tadqiqotlarni o‘rganish va baholash hamda individual yondashuvning pragmatik jihatining empirik barqarorligiga ustuvorlik berish asosida aniqlangan;

akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning obyektiv (uzluksizlik, hamkorlik, innovatsion boshqaruv) va subyektiv (professionallik, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kognitiv pedagogik ehtiyoj) omillari mazkur jarayon mantig‘ini tashkil etuvchi pedagogik-psixologik shart-sharoitlarning produktivlik darajasini identifikatsiyasini ta‘minlash orqali aniqlashtirilgan;

akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish modelining tashkiliy-faoliyatli bloki keys stadi, muammoli ta‘lim, loyiha, kreativ va interaktiv o‘yinlarni akmetexnologik

jarayonni intensiv loyihalashda qayta aloqaga kirishuv darajasi validligini bevosita hisobga olish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning loyihaviy ta'lim texnologiyasi muammoga (Problem-Based Learning), tadqiqotchilikka (Research-Based Learning), guruh bo'lib ishlashga (Team-Based Learning), amaliyotga (Work-Based Learning) asoslangan yondashuvlarning kompleks ta'siri validligini qat'iy belgilash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Oliy o‘quv yurti talabalarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmi” nomli monografiya chop etilgan;

“Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi” nomli uslubiy qo'llanma chop etilgan;

“Kreativ pedagog” nomli to'garak dasturi ishlab chiqilgan va didaktik ta'minoti yaratilgan;

“Akmeologik yondashuv asosida o'z-o'zini kreativ rivojlantirish” dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, milliy va xorijiy tajribalarga asoslangan empirik o'rganishlar asosida keltirilgan tahlillar va tajribasinov ishlarining samaradorligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “akmeologiya”, “akmeologik yondashuv”, “kompetensiya”, “kreativ kompetentlik” tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berilganligi, talabalarda kreativ kompetentlik komponentlari, mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalarining aniqlashtirilganligi, akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati, fanlarni kreativlikka yo'naltirib o'qitish jarayoniga doir yondashuvlarning yoritib berilganligi, akmeologik yondashuv asosida kreativ kompetentlikni rivojlantirishning mavjud imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish modeli hamda mazkur jarayon samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan loyihaviy ta'lim texnologiyasining takomillashtirilganligi, “Akmeologik yondashuv asosida o'z-o'zini kreativ rivojlantirish” dasturining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasiga doir tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish tuzilmasini motivatsion, kognitiv, refleksiv, aksiologik, faoliyatli, kommunikativ, innovatsion komponentlari pedagogik-psixologik tadqiqotlarni o'rganish va baholash hamda individual yondashuvning pragmatik jihatining empirik barqarorligiga ustuvorlik

berish asosida aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan PZ-20170930223 “Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish” amaliy loyihasining yoshlarda kreativ faollikni oshirish qismini bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 21-maydagi 11-05-2323/04-son ma’lumotnomasi). Natijada, akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish mazmunini takomillashtirishga xizmat qilgan;

akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning obyektiv va subyektiv omillarini mazkur jarayon mantig‘ini tashkil etuvchi pedagogik-psixologik shart-sharoitlarning produktivlik darajasini identifikatsiyasini ta’minlash orqali aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 60110100 – pedagogika ta’lim yo‘nalishi uchun “Pedagogik texnologiya” darslikni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 25-avgustdagi 391-son buyrug‘i, 391132-raqamli guvohnomasi). Natijada akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligi rivojlanganlik darajasini belgilovchi mezon, daraja va ko‘rsatkichlarini aniqlashtirishga erishilgan.

akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish modelining tashkiliy-faoliyatli blokini keys stadi, muammoli ta’lim, loyiha, kreativ va interaktiv o‘yinlarni akmetexnologik jarayonni intensiv loyihalashda qayta aloqaga kirishuv darajasi validligini bevosita hisobga olish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 60110100 – pedagogika ta’lim yo‘nalishi uchun “Pedagogik texnologiya” darslikni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 25-avgustdagi 391-son buyrug‘i, 391132-raqamli guvohnomasi). Natijada, akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning amaliy-metodik jihatini takomillashtirishga xizmat qilgan;

bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning loyihaviy ta’lim texnologiyasini muammoga, tadqiqotchilikka, guruh bo‘lib ishlashga, amaliyotga asoslangan yondashuvlarning kompleks ta’siri validligini qat’iy belgilash asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan PZ-20170930223 “Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish” amaliy loyihasining yoshlarda kreativ taffakurni rivojlantirishning didaktik ta’minotini ishlab chiqish qismini bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 21-maydagi 11-05-2323/04-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta respublika va 9 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 32 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta uslubiy qo‘llanma,

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta xorijiy va 7 ta respublika ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning asosiy hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot ishining maqsad, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi va tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, tadqiqot ishining tuzilishi haqida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik zaruriyati, akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari hamda kreativlikni rivojlantirish muammosiga doir xorijiy tadqiqotlarning retrospektiv tahlili yoritib berilgan.

Akmeologiya (yun. “akme” – yetuklik, cho'qqi, kamolot, yuksalish, logos – ta'limot) – shaxsning kasb-hunarni egallashda yuksak cho'qqiga erishishi bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi fan. Akmeologiya haqidagi dastlabki qarashlar XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan. Akmeologiyaning asoschilaridan biri bo'lgan A.A.Derkach akmeologiyani mustaqil ilmiy fan deb ta'kidlaydi. Akmeologiya metodologiyasi inson va uning ma'naviy dunyosi, kreativlik va o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyatiga oid g'oyalar majmuasiga asoslanadi.

“Akmeologiya” tushunchasi ilk bor 1928-yilda N.A.Ribnikov tomonidan rivojlanish psixologiyasining maxsus bo'limi – yetuklik yoki balog'at psixologiyasini belgilash uchun kiritilgan. XX asrning o'rtalariga kelib, B.G.Ananyev akmeologiyaning insonshunoslik fanlari tizimidagi o'rni va mavqeyini belgilab berdi. N.V.Kuzminaning fikricha, akmeologiya – insonning kasbiy yetuklik jarayonida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'z-o'zini ijodiy rivojlantirish qonuniyatlari, shart-sharoitlari, omillari va stimullarini o'rganuvchi fan hisoblanadi.

Pedagogik akmeologiya – bu amaliy fan bo'lib, o'qituvchilarning kasbiy darajasi, kasbiy yetukligi va shaxsiy kompetensiya cho'qqilariga erishish yo'llari haqidagi fan. Zamonaviy kasb-hunar ta'limi tizimidagi akmeologik yondashuv kasbiy motivatsiya, ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarishni rag'batlantirish, o'qituvchining kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy resurslarni aniqlash va unumli foydalanishni mustahkam ta'minlashdan iborat.


Pedagogik ensiklopediyada izohlanishicha, kreativlik (lot. creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon; shaxsning yangi g'oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi kreativ qobiliyatdir. Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy va kreativ yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish. Kreativlik (ingl. “create” – yaratish, “creative” – “yaratuvchi”, “ijodkor”) –

individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlik darajasini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi kreativ qobiliyati. "Kreativlik" tushunchasi 1922-yilda D.Simpson tomonidan birinchi marta ilmiy atama sifatida qo'llanilib, ilmiy atama sifatida fanga kiritilgan. Olimning ilmiy qarashlarida "kreativlik – insonni standart fikrlashdan voz kechish qobiliyati sifatida va yangilik yaratadigan, an'anaviy fikrlash tarzidan chetga chiqadigan kreativ faoliyat bilan bog'liq" deb talqin etilgan.

Ilmiy-kategorik tahlil va kreativ kompetensiyaning yuqoridagi muhim belgilaridan kelib chiqib, biz ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif berdik:

Kreativ kompetensiya – kasbiy va hayotiy vazifalarni hal qilishda o'ziga xos original, nostandart g'oyalarni yaratishga imkon beradigan bilim, ko'nikma, shaxsiy fazilatlar va tajriba yaxlitligi asosida shaxsning ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish qobiliyati.

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilish akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligi komponentlari tuzilmasini aniqlashga imkon berdi va uni quyidagi rasmda ifodaladik (1-rasmga qarang).




1-rasm. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligi komponentlari

Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari: talabalar bilan o'zaro aloqani kuchaytirish, ularni o'zlashtirish va yangiliklarni qabul qilishiga imkon berish, talabalarning o'z fikrlarini ifodalash va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish muhimdir.

Xalqaro tajribalarni o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan xalqaro modellar ichida "4K" kompetensiyalari butun dunyoda qo'llanilayotgan samarali modellardan biridir. Jahon iqtisodiy forumida "Ta'limga yangicha qarash" modeli qabul qilingan bo'lib, uning markaziy qismini "4K" kompetensiyalari egallaydi. Ular: kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va kooperatsiya (o'zaro hamkorlik). Tadqiqot ishimizda "4K" kompetensiyalarini shakllantirishga qo'yilgan talablardan kelib chiqib akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqdik.


Tadqiqotning "**Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish mazmuni, takomillashtirilgan modeli tuzilmasi va mohiyati hamda akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi bayon qilingan.

Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish tashqi (obyektiv) va shaxsiy-shartli (subyektiv) omillarga bog'liq (2-rasmga qarang).




2-rasm. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish omillari

Bo'lajak pedagoglarning akmeologik yondashuv asosida kreativ kompetentligini rivojlantirish uchun bir qancha pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni belgilab oldik (3-rasmga qarang):



3-rasm. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish shart-sharoitlari



4-rasm. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish modeli

Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish modelining mazmuni 4-rasmda keltirilgan.

Modelni amalga oshirish mexanizmi sifatida “Akmeologik yondashuv asosida o‘z-o‘zini kreativ rivojlantirish” dasturi ishlab chiqildi va tajriba-sinovdan o‘tkazildi.

1-jadval

“Akmeologik yondashuv asosida o‘z-o‘zini kreativ rivojlantirish” dasturini amalga oshirish bosqichlari

№	Bosqichlar	Vazifalar	Faoliyat yo‘nalishlari	Amalga oshiriladigan vaqt
1.	Diagnostika bosqichi	1. Shaxsiy va kasbiy mahoratni oshirish. 2. Tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.	1. Muammo bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish. 2. Diagnostika usullarini tanlab olish.	2021-yil, sentyabr-dekabr
2.	Rejalashtirish bosqichi	1.O‘z-o‘zini kreativ rivojlantirishning maqsadi, mazmuni, usul va vositalarini aniqlash. 2. Shaxsiy rivojlanish yo‘lini rejalashtirish.	1.O‘z-o‘zini kreativ rivojlantirishning samarali shakl, usul va vositalarini tanlash. 2.Qo‘yilgan vazifalarning ketma-ketligi va amalga oshirish muddatini belgilash.	2022-yil, yanvar - iyun
3.	Tashkiliy-faoliyatli bosqich	1. O‘z-o‘zini kreativ rivojlantirish bo‘yicha shaxsiy loyiha ishlab chiqish.	1. Individual rivojlanish trayektoriyasini amalga oshirish. 2.Pedagogning shaxsiy portfoliosini yaratish.	2022-yil, sentyabr-dekabr
4.	Yakunlovchi Bosqich	1. O‘z-o‘zini kreativ rivojlantirish jarayonning samaradorligini aniqlash.	1. Yakuniy diagnostika.	2023-yil, yanvar-may

Tadqiqot ishining maqsadidan kelib chiqib pedagogika fanlarini o‘qitishda akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning lokal-modulli texnologiyasini ishlab chiqish konsepsiyasi belgilandi (2- jadvalga qarang).

2-jadval

Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi mazmuni

№	Bosqichlari	Mazmuni	Shakl, metod va vositalari
1.	Kognitiv	Bo‘lajak pedagoglarda akmeologik yondashuv mohiyati va mazmuni hamda kreativ kompetensiyaning nazariy-metodologik asoslariga oid bilimlar shakllantiriladi.	Ma’ruza, amaliy, seminar-trening, to‘garak mashg‘ulotlari, individual, guruhli ish shakllari, kreativ va interaktiv texnologiyalar.
2.	Motivatsion-	Talabalarda o‘z-o‘zini kreativ	Ma’ruza, amaliy, seminar-

	baholovchi	rivojlantirishga motiv hosil bo'ladi, o'z-o'zini baholash, o'z-o'ziga munosabat va o'z-o'zini kasbiy va shaxsiy rivojlanishini boshqarishga oid bilimlar shakllanadi.	trening, to'garak mashg'ulotlari, akmeologik texnologiyalar, anketa, test, o'z-o'zini rivojlantirish dasturi.
3.	Faoliyatli	Pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida kreativ fikrlash, kreativ metodlarni qo'llash va modifikatsiyalash, darsni innovatsion ta'lim texnologiyalari va vositalari asosida tashkil etish ko'nikma va malakalari rivojlantiriladi.	Ma'ruza, amaliy, seminar-trening, to'garak mashg'ulotlari, muammoli ta'lim, loyiha, keys stadi texnologiyasi, interaktiv o'yinlar.
4.	Refleksiv	Dars va darsdan tashqari tadbir loyihalarini ishlab chiqish, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda kreativlik kompetensiyasi rivojlanadi. O'z qobiliyatlari va o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha aniq dastur asosida ishlay oladi, tadqiqot ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmasi shakllanadi.	Amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'lim, muammoli ta'lim, loyiha texnologiyasi, anketa, test, o'z-o'zini rivojlantirish dasturi.

Pedagogika-psixologiya ta'lim yo'nalishining 2-3-kurs talablariga "Pedagogik texnologiya" va "Pedagogika fani metodologiyasi" fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar hamda "Kreativ pedagog" nomli ilmiy-ijodiy to'garak quyida berilgan akmeologik hamda kreativ metodlar asosida tashkil etildi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Kreativlikni rivojlantirish metodlari

Akmeologik va kreativ metod nomi	Izoh
"Antiqa topishmoq" metodi	Ishtirokchilarning topqirligini oshirish, kreativlikni rivojlantirish, faollashtirish uchun qo'llaniladi;
"Noodatiy fikrlaymiz" metodi	Kreativlik, noodatiy fikrlash va mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi;
"Kasbiy istiqbollari" metodi	Ishtirokchilarga keyingi kasbiy qadamlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi;
"Uch so'z" metodi	So'zlarni ishlatib, yangi jummalarni o'ylab topishga o'rgatadi;
"Qanday qilib boshqacha aytaman?" metodi	Ishtirokchilar imkon qadar so'zlarning ko'proq sinonimlarini topishi kerak;
"So'zlar juftligi" metodi	Asosiy vazifa mantiqiy aloqada bo'lmagan so'zlarni birlashtirish, kutilmagan o'xshashliklarni topish;
"To'siqlar xaritasi" metodi	Muammolarni maqsadga aylantirish, mavjud muammolarni kreativ yechish yo'llarini aniqlashdan iborat;
"Muammo maydoni" metodi	Ishtirokchilar tomonidan kasbiy rivojlanish bilan bog'liq ichki muammolar aniqlanadi;

“Yangilik kashf etish orqali o‘rganish” metodi	Talabalarning egallagan nazariy bilimlarini tadqiq etish bilan bir qatorda ularning o‘z-o‘zlarini rag‘batlantirish orqali bilim va ko‘nikmalar to‘plashlariga sharoit yaratadi;
Rolli o‘yinlar	Har bir talabani taqsimlangan rolga nisbatan kreativ yondashishi talab etiladi;
“Freewriting” – Erkin yozish metodi	Faoliyatning turli sohalarida har qanday ijodiy vazifalarni hal qilish uchun mos keladi;
“Mainstorming” metodi	Kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun mashq sifatida yangi g‘oyalarni yaratish uchun foydalaniladi.

Akmeologik va kreativ metodlardan foydalanish talabalarning faoliyatini yanada qiziqarli va samarali tashkillashga yordam beradi. Yuqori keltirilgan metodlarga tayanish talabalarning kreativlik va innovatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, o‘qituvchilar talabalarni ijodiy faoliyat va yaratish jarayonlariga yo‘naltirishlari lozim.

Dissertatsiyaning **“Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlari natijalari va tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni va metodikasi hamda tajriba-sinov ishlari natijalarining samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili keltirib o‘tilgan. Shuningdek, “Kreativ pedagog” nomli ilmiy-ijodiy to‘garak dasturi va unda qo‘llanilgan metod va texnologiyalar yoritib berilgan.

Tajriba maydoni sifatida akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni tanlab olinib, tanlab olingan obyektlarda jami 568 nafar (Qo‘qon davlat pedagogika instituti 194 nafar respondentlar, Farg‘ona davlat universiteti 190 nafar respondentlar, Namangan davlat universiteti 184 nafar respondentlar) pedagogika va psixologiya yo‘nalishining 2-3-kurs talabarlari tajriba-sinov ishlarida respondent sifatida ishtirok etdi. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda tashkil etildi.

Tajriba-sinovning dastlabki **asoslovchi bosqichi** (2020-2021-yillar)da amalga oshirilib, unda o‘quv jarayonidagi mavjud holat o‘rganildi; tadqiqotning maqsadi, vazifalari va ilmiy farazi belgilandi; ishlab chiqilgan maxsus metodikalarni sinovdan o‘tkazish uchun tajriba maydonlari belgilandi. Respondent talabalar soni aniqlanib, nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirildi. Ta‘lim muassasalarida yaratilgan o‘quv-uslubiy ta‘minot: o‘quv reja, namunaviy dastur, ishchi o‘quv dasturlari, o‘quv adabiyotlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy majmualar tahlil etilib, o‘quv mashg‘ulotlari kuzatildi. Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida suhbat, anketa-so‘rovnoma va test sinovlari o‘tkazilib, talabalarda kreativ kompetentlikning rivojlanganlik darajasi va uni rivojlantirishning ahamiyati, ushbu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar aniqlashtirildi, tadqiqot yo‘nalishi aniq belgilab olindi. Dastlabki nazorat ishi natijalarining tahlili asosida talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan “Kreativ pedagog” nomli ilmiy-ijodiy to‘garak dasturi va uning didaktik ta‘minoti ishlab chiqildi hamda “Kreativ

pedagog” nomli telegram kanal tashkil etildi. **Telegram kanal:** (<https://t.me/joinchat/rBYncaAORwI0ZjQy>)

Tajriba-sinovning ikkinchi **shakllantiruvchi bosqichi** (2021-2022-yillar)da akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish modeli takomillashtirildi va uni amaliyotga joriy etish texnologiyasi bo‘yicha tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi; bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi hamda amaliyotga tatbiq etildi; bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning samarali shakl, metod va vositalari aniqlandi va tizimlashtirildi. Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan professor-o‘qituvchilar eksperimentatorlar sifatida tadqiqotchi taqdim etgan materiallar asosida tajriba guruhlarida maxsus o‘quv-tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etdilar. Shuningdek, “Kreativ pedagog” nomli ilmiy-ijodiy to‘garak faoliyati yo‘lga qo‘yildi. To‘garak dasturi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarga bevosita tajriba guruhiga birlashtirilgan talabalar jalb etildi. To‘garak mashg‘ulotlari dasturda belgilangan hamkorlikda va kichik guruhlarda ishlash shakllaridan, ijtimoiy-pedagogik-psixologik treninglardan foydalangan holda olib borildi.

Tajriba-sinovning uchinchi **yakunlovchi bosqichi** (2022-2023 yillar)da tajriba-sinov ishlarining yakuniy natijalari o‘rganildi va tahlil qilindi; dastlabki, oraliq va yakuniy natijalar qiyosiy tahlil etildi; tajriba-sinov ishlari amaliy natijalari asosida ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va ta’lim amaliyotiga joriy etildi.

Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglar kreativ kompetentligining rivojlanganligi samaradorligini aniqlashning diagnostik tizimini quyidagicha ifodaladik (4-jadvalga qarang).

4-jadval.

Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglar kreativ kompetentligining rivojlanganligi samaradorligini aniqlashning diagnostik tizimi

Mezonlari	Ko‘rsatkichlari
Kognitiv	- kommunikativ motivlar, kasbiy motivlar, o‘z-o‘zini kreativ namoyon qilish motivlari, o‘quv bilish motivlari; - o‘z-o‘zidan ma’naviy qoniqish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish; - akmeologiya, refleksiv yondashuv, pedagogika nazariyasiga oid bilim, ko‘nikma, malakalarga egalik;
Faoliyatli	- o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘ziga munosabat va o‘z-o‘zini kasbiy va shaxsiy rivojlanishini boshqarish; - kasbiy va shaxsiy faoliyatni loyihalash, shaxsiy “akme”ni rivojlantirish usullarini qo‘llay olishi;
Kreativ	- o‘quv jarayoni subyektlari bilan qulay ijtimoiy, kreativ muhitni yarata olish; - ta’lim jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olish.

Tajriba-sinov davomida akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglar kreativ kompetentligining rivojlanganligi samaradorlik darajalari aniqlashtirildi (5-jadvalga qarang).

Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglar kreativ kompetentligining rivojlanganligi samaradorlik darajalari

Darajalar	Daraja xususiyatlari
Yuqori-kreativ daraja	Shaxsiy va kasbiy, kommunikativ kreativ faoliyat va o‘z-o‘zini rivojlantirish motiviga ega, kreativlik sifatleri shakllangan, kreativ pedagogik texnologiyalar mohiyati, kreativ kompetentlik komponentlari, ularni rivojlantirish bosqichlari va yo‘llarini biladi va to‘liq tushunadi, innovatsion metod va axborot texnologiyalarini qo‘llash malakasi shakllangan, standart va nostandart topshiriqlarni bajarishda kreativ yondashadi. O‘z qobiliyatlarini va o‘z-o‘zini rivojlantirish bo‘yicha aniq dasturga ega, tadqiqot ishlarida faol ishtirok etadi.
O‘rta-evristik daraja	Shaxsiy va kasbiy kreativ faoliyat va o‘z-o‘zini rivojlantirish motiviga ega, kreativlik sifatleri shakllangan, kreativ pedagogik texnologiyalar mohiyati, kreativ kompetentlik komponentlari, ularni rivojlantirish bosqichlari va yo‘llarini biladi, innovatsion metod va axborot texnologiyalarini qo‘llash ko‘nikmasi shakllangan, topshiriqlarni bajarishga har doim ham kreativ yondoshmaydi, nostandart topshiriqlarni bajarishda biroz qiyinchilikka uchraydi. O‘z qobiliyatlarini va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intiladi, tadqiqot doirasini kengaytirish imkoniyatidan qochmaydi.
Quyi-adaptiv daraja	Shaxsiy va kasbiy kreativ faoliyat va o‘z-o‘zini rivojlantirish motivi shakllanmagan, kreativ pedagogik texnologiyalar mohiyati, kreativ kompetentlik komponentlari, ularni rivojlantirish bosqichlari va yo‘llarini biladi, innovatsion metod va axborot texnologiyalarini qo‘llash ko‘nikmasi yetarlicha emas, topshiriqlarni bajarishga mavjud andozaga tayanadi, nostandart topshiriqlarni bajarishda yordamga muhtoj. O‘z qobiliyatlarini va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intiladi, tadqiqot ishlariga qiziqish mavjud emas.

Tajriba sinovning yakunlovchi bosqichi natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhi respondent talabalarida kreativ kompetensiya rivojlanganligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlashtirgan xulosa tajriba sinov ishlarining ilmiy, texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri va samarali olib borilganini tasdiqlaydi.

Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda tajriba-sinov ishlarining obyektlar bo‘yicha yakuniy solishtirma jadvali(OTMlar kesimida) keltirilgan (6-jadvalga qarang).

Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda tajriba-sinov ishlarining obyektlar bo‘yicha yakuniy solishtirma jadvali (OTMlar kesimida)

Tajriba obyektleri	Tajriba guruhi (tajriba boshida 286 nafar, tajriba yakunida 194 nafar respondent)	Nazorat guruhi (tajriba boshida 282 nafar, tajriba yakunida 179 nafar respondent)
---------------------------	--	--

	yuqori		o'rta		past		yuqori		o'rta		past	
	T.b	T.o	T.b	T.o	T.b	T.o	T.b	T.o	T.b	T.o	T.b	T.o
Qo'qon davlat pedagogika instituti	23	28	36	29	39	9	21	14	35	24	40	24
Farg'ona davlat universiteti	22	26	35	27	37	11	20	14	33	23	43	24
Namangan davlat universiteti	21	25	35	28	38	11	18	13	34	23	38	20
Jami:	66	79	106	84	114	31	59	41	102	70	121	68

